



ISSN (E): 2181-4570

KICHIK YOSHDAGI O`QUVCHILAR NUTQINI O`STIRISH YO`LLARI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti

Boshlang`ich ta`lim metodikasi kafedrasi o`qituvchisi

Xushboqov Qobilbek Shokirovich

Boshlang`ich ta`lim yo`nalishi 3-kurs 3BT 20-guruh talabasi talabasi

Usmonova Nozima Mamadiyor qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik yoshdagi o`quvchilar nutqini o`stirish yo`llari, o`quvchilar nutqiga qo`yilgan talablar, nutq turlari, nutq madaniyati, o`quvchilar dunyoqarashini kengaytirish, tafakkurini o`stirish, erkin fikrlashga o`rgatish haqida so`z borgan.

Kalit so`zlar: nutq, metodika, nutq ma'daniyati, nutq aspektlari, o`quvchilar, matn, nutq turlari, og`zaki nutq, yozma nutq, ichki nutq, tashqi nutq, tafakkur, dunyoqarash, nutqni o`tirish, nutqning mantiqiyiligi.

Kirish. Mustaqil Vatanimizning kelajagi bo`lgan yoshlarni har tomonlama yetuk, barkamol, komil inson qilib rivojlantirish va tarbiyalash har birimizning asosiy vazifamizdir. Yoshlarimiz har doim, har vaqtda, har joyda, qarshisidagi inson kim bo`lishidan qat`iy nazar o`z fikrlarini erkin va to`g`ri ayta olishlari uchun ulardagi to`g`ri so`zlash va nutq madaniyatini yoshlikdanoq rivojlantirib borishimiz lozim.

Bola ilk marotaba maktabga kelishi bilan ularning lug`atida yangi so`zlar paydo bo`la boshlaydi va so`z boyligi ortib boradi. Bu jarayonda o`qituvchining asosiy vazifasi o`quvchilarda to`g`ri nutqni shakllantirish va nutq madaniyatini ularga tushuntirishdan iborat. Biz avvalambor nutq o`zi nima ekanligini, uni o`stirish va unga qo`yilgan talablarni bilib olishimiz lozim.

Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari (so`z, so`z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o`zaro aloqa va xabar, o`z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta`sir etish vazifasini bajaradi. Shu bilan bir qatorda nutqning o`zi to`rt turga bo`linadi: og`zaki nutq, yozma nutq, ichki nutq, tashqi nutq.

Yozma nutq murakkab jarayon bo`lib, ko`p vaqt va mehnat talab qiladi. Bunday nutq davomida inson o`z-o`zini kuzatib boradi. Yozma nutqda savodxonlik va mazmun asosiy o`rinda turadi. Yozma nutqda bog`lanishli nutqqa alohida e`tibor qaratilishi lozim.





Og`zaki nutq gapirib turgan vaqt birligidagina mavjud bo`lib, bu jarayon tugashi bilan nutq ham tugaydi. Og`zaki nutq tezkorlik bilan amalga oshadi va tahrir imkoniyatiga ega bo`lmaydi. Og`zaki nutq so`z boyligi jihatidan yozma nutqqa nisbatan ancha kambag`al bo`ladi.

Kishilarning o`z fikrlarini ovoz bilan eshittirib bayon qilishdan oldin u haqida o`ylab olishlari ichki nutq hisoblanadi. Ichki nutq eshittirilmagan va yozilmagan "o`ylangan" nutqdir, bu nutq fikrlovchi kishining o`ziga qaratiladi.

Tashqi nutq tovushlar yordamida eshittirilib yoki grafik belgilar bilan yozilib, boshqalarga qaratilgan nutqdir.


O`quvchilar nutqini o`stirishda matnlar bilan ishlash ham katta ahamiyatga egadir. O`qituvchilar tomonidan o`quvchilar yoshiga mos bo`lgan matnlar tanlanadi. Tanlangan matnlar qismlarga bo`lib o`qituvchi va o`quvchilar tomonidan sarlavha tanlanadi. Shu jarayonda o`quvchilarning tezkor fikrlash, mantiqiy o`ylashi va topqirligi rivojlanib boradi. Ularga berilgan matnlar ko`proq hayotiy va tabiatga bog`liq bo`lsa mazmunini tushinishlari oson bo`ladi. O`quvchilar bu kabi jarayonlarda tez-tez ishtirok etsalar ularning nutqida o`sish va rivojlanishni kuzatishimiz mumkin.

Nutq o`stirish nima? Agar o`quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko`zda tutilsa, nutq o`stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug`ati, sintaktik qurilishini, bog`lanishli nutqni) faol amaliy o`zlashtirish tushiniladi. Agar o`qituvchi ko`zda tutilsa, nutq o`stirish deganda, o`quvchilarning tilning talaffuzi, lug`ati, sintaktik qurilish va bog`lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo`llash tushiniladi.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek oquvchilar nutqini o`stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo`lishi kerak. O`quvchilar nutqini o`stirishning metodik talabi o`quvchi o`z fikrini, nimanidir og`zaki yoki yozma bayon qilish xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo`lishi lozim. Bu material qanchalik to`liq, boy, qimmatli bo`lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo`ladi. Shunday ekan, o`quvchilar nutqini o`stirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning materiali haqida bo`lib, o`quvchi nutqi mazmunli bo`lishi uchun g`amxo`rlik qilish hisoblanadi.





3. Fikr tinglovchi tushunadigan soʻz, soʻz birikmalari, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli boʻladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli oʻstirishning uchinchi sharti - nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

Oʻquvchilarga til namunalarini berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan oʻz tajribasida foydalanish natijasida bolalarda taʼlim metodikasi asoslanadigan ongli ravishda “tilni sezish” shakllanadi. Nutq oʻstirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, yaʼni, birinchidan, yaxshi nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, oʻrgangan til vositalaridan foydalanib, oʻz fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi. Bola tilni nutqiy faoliyat jarayonida oʻzlashtiradi. Buning oʻzi yetarli emas, chunki u nutqni yuzaki oʻzlashtiradi. Nutqni egallashning qator aspektlari mavjud. Bular:

1. Adabiy til meʼyorlarini oʻzlashtirish. Maktab oʻquvchilarni adabiy tilni sodda soʻzlashuv tilidan, sheva va jargondan farqlashga oʻrgatadi, adabiy tilning badiiy, ilmiy, soʻzlashuv variantlari bilan tanishtiradi.

2. Jamiyatimizning har bir aʼzosi uchun zarur boʻlgan muhim nutq malakalarini, yaʼni oʻqish va yozish malakalarini oʻzlashtirish. Bu bilan oʻquvchilar yozma nutqning xususiyatlarini, uning ogʻzaki-soʻzlashuv nutqidan farqini bilib oladi.

3. Oʻquvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish. Til jamiyatdagi eng muhim aloqa vositasidir. Tilning mana shu ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, maktabda oʻquvchilarning nutq madaniyatiga alohida eʼtibor beriladi. Bu vazifalarni bajarish uchun oʻqituvchi oʻquvchilar bilan rejali ish olib borishi lozim. Buning uchun esa oʻquvchilar nutqini oʻstirish ustida ishlash tushunchasiga nimalar kirishini bilib olish muhimdir.

Nutq oʻstirishda uch yoʻnalish aniq ajratiladi:

- 1) soʻz ustida ishlash;
- 2) soʻz birikmasi va gap ustida ishlash;
- 3) bogʻlanishli nutq ustida ishlash.

Soʻz, soʻz birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza boʻlib leksikologiya (frazologiya va stilistika bilan birgalikda), morfologiya, sintaksis xizmat qiladi; bogʻlanishli nutq esa mantiqqa, adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi.

Koʻrsatilgan uch yoʻnalish parallel olib boriladi:

- ✓ lugʻat ishi gap uchun material beradi;





✓ soʻz, soʻz birikmasi va gap ustida ishlash bogʻlanishli nutqqa tayyorlaydi. Oʻz navbatida, bogʻlanishli hikoya va insho lugʻatni boyitish vositasi boʻlib xizmat qiladi. Oʻquvchilar nutqini oʻstirish oʻz metodik vositalariga ega, oʻzining mashq turlari bor. Bulardan eng muhimlari bogʻlanishli nutq mashqlari hisoblanadi. Nutq oʻstirishda izchillik toʻrt shartni, yaʼni mashqlarning izchilligi, istiqboli, xilma-xilligi, xilma-xil mashq turlarini umumiy maqsadga boʻysundirish koʻnikmasini amalga oshirish bilan taʼminlanadi. Har bir yangi mashq oldingisi bilan bogʻlanadi va keyingisiga oʻquvchilarni tayyorlaydi, umumiy maqsadga boʻysungan holda yana qandaydir yangilik qoʻshadi. Maktabda oʻquvchilar nutqini oʻstirishga ona tili oʻqitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Nutq oʻstirish faqat ona tili va oʻqish darslarininggina emas, balki oʻquv rejasidagi barcha fanlar (tabiatshunoslik, matematika, mehnat, tasviriy sanʼat, ashula darslari)ning, shuningdek, sinfdan tashqari oʻtkaziladigan tadbirlarning ham vazifasidir.

Oʻqituvchining turli fanlarni oʻqitishdan maqsadi oʻquvchilarning nutq madaniyatini, nutq koʻnikmalrini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirish kabi masalalarni oʻz ichiga oladi. Oʻqituvchi nutqi oʻquvchilar uchun namunadir. Oʻquvchilarning nutqi ravon, tushunarli boʻlishi uchun eng avvalo uning nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga eʼtibor berish zarur. Endilikda nutq odobi, nutqiy mahorat, notiqlik, notiqlik mahorati maktablar hayotidan keng oʻrin olmogʻi lozim. Ayniqsa, oʻqituvchining nutqida ifodalilik yetarli boʻlsa, albatta, bunday nutq bolalar nutqiga ham taʼsir etadi.

Nutq madaniyati faqatgina adabiy tilni ongli va maqsadga muvofiq meʼyorlashga qaratilgan harakatlarga emas, balki millatning umumiy koʻtarish, odamlarga maʼlum “til didi”ni tarbiyalashga xizmat qiluvchi faoliyat hamdir.

Oʻquvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish uchun ularni koʻproq kitob oʻqishga undash, uyda ota-onalari bilan mazmunli suhbat qilishga jalb qilish, doʻstlari bilan fikr almashishlariga va qiziqarli suhbat qilishlariga sharoit yaratish lozim. Shundagina oʻquvchilarda dunyoqarash shakllanadi va fikrlash doirasi kengayib boradi. Chunki bola eshitgan va koʻrgan hodisalarini sekinlik bilan tushunib, har safar har xil taassurotlarni oʻziga oladi. Bu kabi jarayonlar oʻquvchilar nutqini rivojlanishiga, ravon va toʻgʻri gapirishlariga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda oʻquvchilar nutqini oʻstirish, toʻgʻri va mazmunli gapirishga oʻrgatish ularning kelajakdagi yutuqlariga, erishadigan muvaffaqiyatlariga zamin





yaratadi. Ularni har doim qiyin va og`ir vaziyatlardan olib chiqishga, ularning ta`sirli va mazmundor nutqlari yordamga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Холмуротова, Ш. М. (2022). АЁЛЛАР ДЕВИАНТ ХУЛҚ-АТВОРИНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ ДИАГНОСТИКАСИ. *Science and innovation*, 1(В3), 129-133.

2. Холмуротова, Ш. М. (2022). АЁЛЛАРДА ДЕВИАНТ ХУЛҚ-АТВОР ХУСУСИЯТЛАРИ ПСИХОПРОФИЛАКТИКАСИДА ДИНИЙ БИЛИМЛАРНИ ҚЎЛЛАШ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(6), 286-294.

3. Холмуротова, Ш. М. (2021). ЗНАЧЕНИЕ РЕЛИГИОЗНЫХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ ЛИЧНОСТИ В ДУХОВНОМ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ. *European science*, (3 (59)), 60-63.

4. Холмуротова, Ш. М., & Алмардонова, Г. Т. Қ. (2022). ҚИЗЛАРНИ МУСТАҚИЛ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ШАКЛ, МЕТОД ВА ВОСИТАЛАРИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(11), 375-383.

5. Холмуротова, S., & Adilova, S. (2022). ERIK BERNNING TRANZAKSION TAHLILIDAN TUZILMAVIY TAHLIL. *Science and innovation*, 1(В8), 391-393.

6. Холмуротова, Ш. М. (2023). МУҚАДДАС МАНБАЛАРДА АЁЛ ЎРНИНИНГ ПСИХОЛИГИК ШАРҲИ. ТА`ЛИМ ВА RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 85-88.

7. Холмуротова, S., & Adilova, S. (2023). SHAXS IJTIMOIYLASHUVIDA RATSIONAL-EMOTIV PSIXOTERAPIYANING SAMARADORLIGI. *Interpretation and Researches*, 2(3). извлечено от <http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/16>

8. Orifjonovna, A. D. (2022). Psychological Factors of the Use of Coaching Technology in the Formation of Spiritual Emotional Intelligence in Students. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(3), 215-218.

9. Aminova, D. O. (2021). THE EFFECT OF SOCIAL PROCESSES ON HUMAN CONSCIOUSNESS. *Экономика и социум*, (1-1 (80)), 30-32.





10. To`rahonova, M. (2023). BO `LAJAK O `QITUVCHILARNING KASBIY O `ZLIGINI ANGLASHINING PSIXOLOGIK OMILLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(3), 54-59.

11. Kizi, M. T. A. (2022). Solutions to the problem in the development of intellectual property of modern educational technologies.

12. Бозорова, М., & Турахонова, М. (2021). РОЛЬ ЭТНОПЕДАГОГИКИ В ПРОЦЕССЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ. Энигма, (32), 82-86.

13. Xushboqov, Q. (2022). BIR YOZUVDAN IKKINCHI YOZUVGA O `TISHDAN TARXIY SABOQ. Eurasian Journal of Academic Research, 2(5), 306-310.

14. Qobilbek Shokirovich Xushboqov (2022). O `ZBEK KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI BORASIDAGI TURLI QARASHLAR. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (5), 385-391.

15. Djoraevich, E. B., Shokirovich, K. K., Shodieva, K. K., & Gayratovna, Y. G. A Commentary on a Poem. International Journal on Integrated Education, 4(3), 122-125.


16. Xushboqov, Q. (2022). BIR YOZUVDAN IKKINCHI YOZUVGA O `TISHDAN TARXIY SABOQ. Eurasian Journal of Academic Research, 2(5), 306-310.

17. Xushboqov, Q. S. (2022). O `ZBEK KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI BORASIDAGI TURLI QARASHLAR. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(5), 385-391.

18. Saidova Parvina Mirzo qizi, & Murodullayeva Zaytuna Abdulloyevna. (2023). SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MA `NAVIY TARBIYA HAQIDAGI TA `LIMOTLARI . Journal of Universal Science Research, 1(5), 340–351. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/665>

19. Saidova Parvina Mirzo qizi, & Saparova Shalola Sheraliyevna. (2023). ABDURAUFI FITRATNING “OILA” ASARIDAGI MA `NAVIY-AXLOQIY QARASHLARI. Journal of Universal Science Research, 1(5), 352–362. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/666>

20. Saidova Parvina Mirzo qizi, & Pardayeva Sevara Abdunosir qizi. (2023). 1-4-SINF O `QUVCHILARIDA MA `NAVIY TARBIYA INDIKATORLARINI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI. Journal of Universal Science Research, 1(5), 363–373. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/667>



21. Elmurodov N. O`qituvchining nutq madaniyati. O`quv qo`llanma. –SamDU nashri, 2003.
22. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. – T.: O`qituvchi , 1993.
23. Karimov S.A., Mahmatmurodov Sh.M., Karimova O.N. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – T.: “O`zbekiston”, 2003.
24. Begmatov E. Notiqning nodir boyligi. – T.: “Fan”, 1990.
25. Mahmudov N. O`qituvchi nutqi madaniyati. T.: Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.